XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-yanvar VII-5-1-10-147-K/25 Olmaliq shahar

Olmaliq shahrida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorini kiritish va qo‘llash yuzasidan, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmonining 1-bandi 2-xatboshiga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun daha, massiv va mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligi ma’lumot uchun, 2025-yil O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni ma’lumot va ijro uchun, Olmaliq shahar hokimi (shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va sahar Soliq inspeksiyasi bilan birgalikdagi) 2024-yil 12-dekabrdagi 5/975 sonli taklifi, shuningdek, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining doimiy komissiyalar qo‘shma majlisi hulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentining Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish va

qo‘shimchalarni hisobga olib, Olmaliq shahar hokimining 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar yuzasidan kiritilgan takliflar ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27-moddasi va Soliq kodeksining tegishli normalariga asosan Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining “**Olmaliq shahrida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar to‘g‘risida”gi** qaror loyihasi 2024-yil 13-dekabrdan 28-dekabrgacha jamoatchilik muhokamalari portalida (ID 105207) 15 kun muddatga joylashtirilganligi, berilgan muddat ichida jamoatchilikdan qo’shimcha taklif yoki e’tirozlar kelib tushmaganligi, 2024-yil 27-dekabrda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24 sonli, 2024-yil 27-dekabrda Olmaliq shahar Kengashining “Olmaliq shahrining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-021-10-147-K/24 sonli qarorlari qabul qilinganligi sababli loyihaga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin.

4. Olmaliq shahrida 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 1,1 gacha oshiruvchi koeffitsientini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **1-ilovaga;**

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 1.5 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Olmaliq shahar Soliq inspeksiyasi **(I.Aliyev)**ga:

Ushbu qarorni ijrosini qat’iy ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Olmaliq shahar Soliq inspeksiyasi byudjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, Soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatilishi bo‘yicha har oy yakuni bo‘yicha **keyingi oyning 16-sanasida** Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashiga ma’lumot kiritib borsin.

7. Shahar hokimining birinchi o’rinbosari Sh.Begiyev va shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Abdiyev hokimlik huzurida Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalarini aniqlash, daromadlarini oshirib borish bo‘yicha ishchi guruh tuzilishini va uning samarali ishlashini ta’minlasin.

8. Olmaliq shahar Soliq inspeksiyasi shahar hokimligi va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur qaror bilan belgilangan soliqlar, aholining soliqqa oid madaniyatini oshirish bo‘yicha targ’ibot, tashviqot ishlarini olib borsin.

9. Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2024-yil 8-yanvardagi “Olmaliq shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligi mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-83-1-10-147-K/24-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi va amal qiladi.

11. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi **D.Karimov** zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

ABDURAYIMOV
ERGASH
ARIFDJANOVICH

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-5-1-10-147-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahrida 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 1,1 gacha oshiruvchi koeffitsientini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari

T/r	Mahalla nomi	Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 gektar uchun (noturar obyektlar)		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 kv.m uchun (noturar obyektlardan tashqari)	
		Koeffitsienti	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)	Koeffitsienti	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1.	“So‘fi Olloyor” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
2.	“Temur Malik” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
3.	“Xamza” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
4.	“Terakli” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
5.	“Toshkent” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
6.	“Uvaysiy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
7.	“O‘zbekiston” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
8.	“Saxovat” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
9.	“Usmon Nosir” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
10.	“Hilol” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
11.	“Yangi xayot” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
12.	“Yulduz” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
13.	“Shosh-lloq” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
14.	“Furqat” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
15.	“Sharof Rashidov” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
16.	“Cho‘lpon” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
17.	“Chambil” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
18.	“Tinchlik” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
19.	“Xamid Olimjon” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
20.	“Qolmoqir” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
21.	“Abdulla Qahhor” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
22.	“Ramazon” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16

23.	“Olmaliqsoy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
24.	“Olmaliqovul” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
25.	“Oydin” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
26.	“Namuna” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
27.	“Navro‘z” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
28.	“Mustaqillik” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
29.	“Muso Jalil” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
30.	“Muqumiy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
31.	“Mirzo Ulug‘bek” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
32.	“Metallurg” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
33.	“Ko‘rpasoy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
34.	“Koinot” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
35.	“Kimyogar” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
36.	“Kamalak” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
37.	“Islom Karimov” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
38.	“Zarbuloq” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
39.	“Do‘stlik” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
40.	“Gultepa” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
41.	“G‘ofur G‘ulom” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
42.	“Bo‘ston” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
43.	“Bog‘oro” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
44.	“Bobur” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
45.	“Birdamlik” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
46.	“Bexbudiy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
47.	“Axmad Yassaviy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
48.	“Alisher Navoiy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
49.	“Ibn Sino” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
50.	“Abdulla Qodiriy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
51.	“Abdulla Avloniy” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16
52.	“Oltin” MFY	1.1	71 632 000.00	1.1	644.16

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-5-1-10-147-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari		Yer osti suv manbalari	
		Koeffitsienti	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)	Koeffitsient	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1.5	1 050.00	1.5	1 270.00
2.	Sanoat korxonalari	1.5	1 050.00	1.5	1 270.00
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	1.5	165.00	1.5	202.50
4.	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1.5	150.00	1.5	150.00
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1.5	22 500.00	1.5	22 500.00
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda	1.5	57 000.00	1.5	57 000.0

	pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi				0